

BMT bosh qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusiga bag'ishlangan yuqori darajadagi brifing bo'lib o'tdi



Joriy yilning 10-dekabr kuni BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida qurolli mojaroli hududlardan qaytarilgan shaxslarni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha Mintaqaviy ekspertlar kengashining faoliyatiga bag'ishlangan yuqori darajali brifing tashkil etildi.

Tadbir SMTI va O'zbekistonning BMTdagi Doimiy vakolatxonasi tomonidan BMT Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi va BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi ko'magida o'tkazildi.

Brifingda BMT Bosh kotibi o'rinbosari Vladimir Voronkov, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha Mintaqaviy markazi rahbari Kaha Imnadze, BMT Bosh kotibi yordamchisi Xaled Xiari, BMT Aksilterror markazi direktori Mauro Miediko, BMTning terrorizm bo'yicha sobiq maxsus ma'ruzachisi, Minnesota universiteti (AQSH) professori Fionnuala Ni Aolain, BMT huzuridagi Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining (XQQQ) doimiy kuzatuvchisi Letitsiya Kurtua, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik missiyalari rahbarlari so'zga chiqdi.

Tadbir BMTga a'zo davlatlar vakillarida katta qiziqish uyg'otdi. Brifingda Osiyo, Afrika, Yevropa, Shimoliy va Lotin Amerikasining 50 dan ortiq davlati, shuningdek, 10 ga yaqin xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etdi.

Rehabilitatsiya va reintegratsiya masalalari bo'yicha mintaqaviy ekspert kengashi 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi shafeligida tashkil etilgan. Kengash Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari ekspertlari va mutaxassislarini birlashtirdi. Uning platformasida reintegratsiya qilingan shaxslarning normal va to'laqonli hayotga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydigan bilimlar, usullar va dasturlar jamlanadi.

Xalqaro majburiyatlarni bajarish doirasida O'zbekiston birinchilardan bo'lib o'z fuqarolarini qurolli mojaroli hududlardan repatriatsiya qildi. 2019- yildan beri 530 dan ortiq O'zbekiston fuqarolari, asosan ayollar va bolalar, Vatanga qaytarildi. Ularga tibbiy, ijtimoiy va ruhiy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, kasb-hunarga o'qitish va ishga joylashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi.

Muhokamalar davomida BMT Bosh kotibining Yaqin Sharq va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo'yicha yordamchisi Xaled Xiari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qo'shgan hissasi va ushbu masalada olib borayotgan siyosati qat'iyiligi uchun minnatdorchilik bildirdi. Shu asnoda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Mintaqaviy ekspertlar kengashi alohida qayd etildi.

Kengashning ahamiyati haqida so'z yuritar ekan, BMT Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi rahbari Vladimir Voronkov "Tashkilot TQKB SMTI bilan birgalikda Mintaqaviy ekspertlar kengashi kotibiyati vazifasini bajarayotganidan faxrlanadi," deya ta'kidladi.

Uning so'zlariga ko'ra, bugungi muhokamalar Mintaqaviy ekspertlar kengashi xalqaro sa'y-harakatlarni safarbar qilish markazi bo'lib, qaytarilayotgan shaxslarni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilish sohasidagi ilg'or amaliyot va uslublarga namuna bo'la olishini tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha Mintaqaviy markazi rahbari Kaha Imnadze ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi boshqa davlatlar uchun namuna bo'la oladi. "Mintaqaviy ekspertlar kengashi dunyoning boshqa qismlarida ham takrorlanishi mumkin bo'lgan noyob tashabbusdir. Men Markaziy Osiyodagi hamkorlarimiz, BMT va mintaqaviy tashkilotlarni eng yaxshi yechimlarni topish uchun ushbu platformadan foydalanishda davom etishga chaqiraman," - deya qo'shimcha qildi u.

Rossiya va AQShning BMTdagi elchilari ham Kengash faoliyatini to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirdilar. Markaziy Osiyo davlatlari o'z fuqarolarini mojaroli hududlardan qaytarish bo'yicha sezilarli sa'y-harakatlarni amalga oshirgani siyosiy iroda va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarga sodiqlik namunasi ekanligi ta'kidlandi.

Ishtirokchilar O'zbekistonning qaytarilgan shaxslarni reintegratsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarida mahalliy jamoalarning (mahallalar) rolini yuqori baholadilar.

